



Saodat MAMAYUSUPOVA,
JDPU katta o'qituvchisi, PhD
E-mail : saodatmamayusupova78@gmail.com

NamDU professori, f.f.n. M.Xamidova taqrizi asosida

EXPRESSION OF SIMPLE FOLKLORISMS IN THE STORIES OF SHUKUR KHOLMIRZAEV

Annotation

This article discusses the classification and analytical study of the problem of folklorisms

Key words: Transformation, terms, scientific, theoretical, problems, characteristic, features, trends, nationalism, composite folklorism, social, ethnographic.

ВЫРАЖЕНИЕ ПРОСТЫХ ФОЛЬКЛОРИЗМОВ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема классификации и аналитического исследования фольклоризмов.

Ключевые слова: Трансформация, термины, научные, теоретические, проблемы, характеристика, черты, тенденции, национализм, композиционный фольклоризм, социальный, этнографический.

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA ODDIY FOLKLORIZMLAR IFODASI

Annotasiya

Ushbu maqolada oddiy folklorizmlar muammosining tasnifiy, tahliliy jihatdan o'rganish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Transformasiya, istilohlar, ilmiy, nazariy, muammolar, xarakterli, xususiyatlar, tendensiyalar, xalqchilik, kompozision folklorizm, ijtimoiy, etnografik.

Kirish. XX asr zamonaviy o'zbek nasri ustalari A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek, A.Muxtor, S.Ahmad kabi ko'plab ijodkorlar singari Shukur Xolmirzayev ham o'z hikoyalarida xalq maqollari, matallari, topishmoqlar, xalqona obrazli, iboralardan nihoyatda mahorat bilan foydalanadi. Yozma adabiyotga maqol, matal, iboralarning ko'chishi "oddiy folklorizmlar" deb ataladi. Oddiy folklorizmlar she'riyat poetikasidagina emas, nasriy asarlar poetikasida ham muhim rol o'ynaydi. Oddiy folklorizm Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiiyatini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqol, matal, idiomalar, xalqona obrazli ifodalar, frazeologizmlarning yozma adabiyot tomonidan o'zlashtirilishi, xususan, xalq maqol va matallarning she'riyatga ko'chuvi masalasini ko'pchilik tadqiqotchilar, masalan, T.Xo'jayev, M.Hakimov, D.Xoliqova, L.Sharipovalar o'rganishgan. Oddiy folklorizmning nazariy tabiatini o'rgangan B.Sarimsoqov, I.Yormatovlar oddiy folklorizmni ikkiga bo'lishdi. Bular asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar. Oddiy folklorizmlarni bu tipda tasniflab, nomlanishidayoq, uning nazariy tabiati oydinlashib turibdi. Ya'ni xalq maqol va matal, obrazli xalqona badiiy ifodalar (idioma va boshqalar)ning aynan o'zidek ishlatilishi asl oddiy folklorizmlar bo'lsa, ularning ijodkor tomonidan qaytadan o'zgartirishlarga uchrab, yangilanishi "qayta ishlangan oddiy folklorizmlar"ni tashkil etadi. Atoqli yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida asl folklorizmlar ham, qayta ishlangan folklorizmlar ham ko'p uchraydi. Oddiy folklorizmning har ikki turiga adibning epik turning roman, qissa, hikoya, esselaridan minglab misollar topish mumkin. Oddiy folklorizmlar she'riy asar badiiyatini yuksaltirishda, uni yetuk badiiy asar sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etganidek, nasriy asarlarda ham xuddi shunday ahamiyatga molikdir. - Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek adabiyotshunosligida oddiy folklorizmlarni o'rganish borasida, asosan, maqol va matallarning she'riyatda ishlatilishi masalasi ko'proq tadqiq etilgani ma'lum bo'ldi. Vaholanki, oddiy folklorizmlar doirasiga xalq iboralari, idiomalar, xalqona oborotlar ham kirishini nazariyotchi olimlar belgilab berishgan. Shu nuqtayi nazardan yondashib, biz Shukur Xolmirzayev

hikoyalarida ko'zga tashlangan asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlarni aniqlashtirishda maqol, matal, obrazli xalqona ifodalar, iboralarga ham e'tibor qaratib, tahlil qildik.

Shukur Xolmirzayevning "Nimadir yo'q bo'ldi" hikoyasida "o'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas" maqoli ishlatilgan bo'lsa, "Olma yemadim" hikoyasida "Og'zining suvi keldi", "tanglayi qurib, tili og'zida aylanmay qolish", "ko'zini qismoq", "pishillab yemoq" kabi ibora va obrazli xalqona ifodalar qatorida "bir mayizni qirgga bo'lib yemoq" matali o'zlashma shaklida ishlatilgan. Hikoya kontekstida ishlatilgan mazkur oddiy folklorizmlar badiiy asar badiiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Masalan: "Bir hafta o'tdi. Er-xotin begonalar kabi yashashdi. Qismatulla qiyndi, o'rtandi: o'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas. Shubhasiz, Hikmatoy ham azob chekkan bo'lsa kerak: axir u ham Qismatullaga o'rgangan...". Mazkur parcha "Nimadir yo'q bo'ldi" hikoyasidan olindi. Hikoya qahramonlari Qismatullo va Hikmatoy bir ziyofatga borishib, muomalasi o'zaro va o'zgalarga nihoyatda halim, shirin juftlikni ko'rishib, ularning orasidan ola mushuk o'tadi. Qismatullo ularga taqlid qilib, xotinidan, o'sha ziyofatda ko'rgan juftning ayolidek bo'lishni Hikmatoydan kutadi. Taassufki, ularning bir-biriga nisbatan tushunarsiz, sovuqqon munosabati tufayli ikkalasining ham qalbidagi chinakam muhabbat darz ketadi. Begonalardek bir-birining ko'nglini qoldirib yashayotgan er-xotinning ruhiy holatini jonli ifodalash maqsadida yozuvchi xalq orasida mashhur bo'lgan "O'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas" maqolini hikoya matniga singdirib yuborgan.

Ma'lumki, xalqimiz orasida "So'nggi pushaymon, o'zingga dushman" degan xalq maqoli yuradi. Mazkur maqol mohiyatida "pushaymonlik"ning salbiy oqibati, inson ruhiyatiga, hayotiga yetkazadigan yomon oqibati obrazli ifodalangan. Shukur Xolmirzayev "Hayot abadiy" hikoyasida mazkur maqolni o'zgartirib, badiiy asar matnida oddiy folklorizm yaratgan. Masalan: "To'g'ri, Nodir oilasiga ko'p beparvo edi. Xolxo'ja milisaning: "Sen g'irt proletarsan!" deganida jon bor.

Hammasi o'tdi-ketdi, endigi pushaymon o'zingga dushman". Kuzatilayotganidek, iste'dodli yozuvchi "So'nggi pushaymon, o'zingga dushman" xalq maqolini hikoya matnida

o'zgartirib ishlatadi. Xalq maqolini stilizatsiya qilib, "endigi pushaymon o'zingga dushman" shaklida qo'llaydi. Natijada, hikoya badiiy kompozitsiyasida qayta ishlangan oddiy folklorizm yaratilgan. "Hayot abadiy" hikoyasi qahramoni sovxozning bosh agronomi Nodir Ro'ziqulov. Hikoya matnida xalq maqolida ishlatilgan "So'nggi" so'zi "Endigi" so'zi bilan almashtirilgan. Ya'ni adib o'zbek xalq maqoli kontekstidagi bitta so'zni yangilash bilan hikoya kontekstida oddiy folklorizmni paydo qilgan. Bundan tashqari, "Hayot abadiy" hikoyasida quyidagi oddiy folklorizmlar ham uchraydi. Bular: "hemirisi yo'q ekspeditor", "ta'bini tirriq qildi", "bo'shashib ketdi", "bo'lganim turganim shu", "guppa yiqildi", "yomon o'lim topdi, it qavmida o'lib ketdi", "tezroq ko'zdan yo'qolsin", "bukkan qaddini tiklashdi", "ko'ngli yumshab" kabi o'nlab oddiy folklorizmlar. Shukur Xolmirzayev hikoyaning joydari xalqona uslubini asar matnida yaratish uchun ko'plab oddiy folklorizmlarni yaratgan. Hikoya qahramoni Nodir Ro'ziqulov qaynonasining achchiq-tizziq gapi bilan "Mening bo'lgan-turganim shu. Chidamasangiz qizingizni olib ketavering!" deyishi bilan xotini qizchasini ergashtirib, onasini ketib qoladi. Hikoya ana shu yolg'iz qolgan halol agronom Nodir Ro'ziqulovning ichki xayoldagi o'ylari, tanqid-yahilliy mulohazalari asosiga qurilgan. Hikoya yakunida qahramon hayot haqida shunday xulosaga keladi: "Ka'baga o't qo'yib, butga cho'qin, lekin mo'rchaning og'ritmagil, ha shunaqa bo'ladi-da", dedi". Adib qahramonning ichki o'y-kechinmalarini, qaynonasi va jamiyat bilan munosabatini real, haqqoniy aks ettirish maqsadida oddiy folklorizmlarni yaratib, asarning badiiy ta'sirchan kuchini, badiiy-estetik qiymatini oshirishga erishgan. Yana e'tiborli jihati shundan iboratki, yozuvchi yuqorida keltirilgan parchada hadislar va Islomiy ta'limotga ko'ra, chumoliga ham ozor bermaslik haqidagi ma'rifiy va umuminsoniy g'oyani hikoyaga singdirib yuborgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijtimoiy-etnografik folklorizmlar nihoyatda tiniq bo'yoqlarda tasvirlanadi. Masalan, "Arpali qishlog'ida", "O'lis yulduzlar ostida" boshqa qator o'nlab hikoyalarida ham ijtimoiy-etnografik folklorizm ko'p uchraydi. Masalan, "Beshikkerti" udumi ijtimoiy-etnografik folklorizmga misol bo'ladi. Shuningdek, Arpali qishlog'ida yashovchi to'g'iz urug'i odamlarining yashash sharoiti, maishiy turmush tarzi ham hikoyada nihoyatda aniq-tiniq aks ettirilgan. Masalan: "Abdurasul lampochkani qo'yib, uyga kirdi. Uning avzoyidan xafalikni sezgan ota ham ergashdi. Abdurasul quroq ko'rpachaga o'tirib, chordana qurdi. Abay aka chakmonini yechib, poygakka cho'kka tushdi"[1]. Mana shu parchadagi "quroq ko'rpacha", "chakmon", "chordana qurib o'tirish" bular o'zbekning, aniqrog'i Arpali qishlog'ida yashovchi to'g'iz urug'ining maishiy hayotiga kichik bir chizgidir. Shu bois adib hikoyalarida uchraydigan bunday yuzlab maishiy lavhalar, milliy urf-odatlar, udumlarni ijtimoiy-etnografik folklorizm turi sifatida alohida o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuningdek, yozuvchining ba'zi hikoyalari matnida tojikcha iboralar, maqollar ham uchraydi. Bu ham, albatta, tasodif emas. Chunki Surxondaryo viloyatining ba'zi tumanlarida o'zbek-tojik xalqi aralash yashaydi. Jumladan, "Tikan orasidagi odam" hikoyasida tojik xalqining mashhur maqollaridan biri "Zo'ri behuda miyon meshikand" ishlatilgan. Bu maqol o'zbek xalqining atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "To'yda aza" hikoyasiga epigraf sifatida tanlangan. Maqolning o'zbekcha ma'nosi: "Behuda kuchanishdan foyda yo'q" demakdir. "Tikan orasidagi odam" hikoyasida bir-birini yoqirmaydigan ikki odam va ularning ovga chiqishi, ov paytidagi baxtsiz falokat tasvirlanadi. Hikoya qahramonlari eski agronom Amirqul va yosh agronom Mirhaydar obrazlaridir. Masalan, eski agronom Amirqul nutqida "qitiq parimga tegaverma", "bir boshim, ikki qulog'im bor", "Chuchvarani xom sanama, chirog'im!", "Yiqqanim yetti pushtimga yetadi", "tishingni so'rib qolasan!" kabi oddiy folklorizmlar uchrasa, yosh agronom nutqida "Otdan tushsangiz ham, egardan tushmaysiz-a?" kabi oddiy folklorizmlar ikki bir-biriga raqib bo'lib turgan qahramonlar ruhiyatini teran ochib berishga xizmat qilgan. Shuningdek, hikoyada qahramonlar nutqida uchraydigan bu kabi oddiy folklorizmlar qahramonlar nutqini individuallashtirib bergan. Ular to'ng'iz ovlamoqchi

bo'lishadi. "Nihoyat, jarga yaqinlashib, bir tup yantoq yoniga cho'nqaydi. Narigi betga ko'z tashlab, Amirqul aka tomonga qaradi va uning cho'nqayib o'tirgan gavdasini va botayotgan oy nurida yiltirayotgan miltig'ini aniq ko'rdi".

Tahlil va natijalar. Y Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ishlatilgan oddiy folklorizm va uning turlarini aniqlashtirish jarayonida adibning bir maqol, matal, iborani boshqa hikoyasida ham qayta ishlatib, har bir hikoyada o'ziga xos badiiy maqsad va vazifalarda qo'llaganini anglash mumkin. Adib hikoyalarida uchraydigan oddiy folklorizmlar asarning g'oyaviy-badiiy qiymatini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, asarning o'qishlilik, yuqumlilik darajasini, ya'ni badiiy asar jozibadorligini oshiradi. Kuzatilganidek, adib hikoyalarida o'zbek xalq maqol va matallardan tashqari, qardosh xalqlar, xususan, tojik xalq maqollaridan ham foydalanganini ta'kidlash o'rinni.

Shuningdek, oddiy folklorizmlarning nasriy asarlarda sintez va stilizatsiya qilinishi she'riy asardagi badiiy funksiyalaridan sal o'zgacharoq tarzda namoyon bo'ladi. Ya'ni she'riyatda maqol, matal va boshqa oddiy folklorizmlar ishlatilgan ekan, vazn, qofiya, ritm hisobga olinadi. Nasriy asarda nasriy saj' xususiyati bo'lsa-da, har holda, she'riyatdagi kabi oddiy folklorizmlarni hosil qilishda qattiq bir qoida, qonun mavjud emas. Nasrda anchayin erkinlik bor.

Adabiyotshunos N.Soatova maqol, ibratli xalqona obrazli ifodalarning badiiy asardagi ahamiyati beqiyosligini ta'kidlab shunday yozadi: "Badiiy asarda maqollardan, ibratli gaplardan foydalanish asarning ifoda kuchi va realistik qudratini oshirib, fikrning obrazli bayon qilinishini ta'minlovchi omil sifatida. Shuning uchun xalq maqollari o'zining ixchamligi, to'la qofiyaliligi, hayotiyiligi bilan kishilar nutqini bezaydi va o'zining donolik xazinasi bilan inson tafakkurini, ong-u shuurini boyitadi".

Shuningdek, Sh.Xolmirzayevning "Bahor o'tdi" hikoyasida oddiy folklorizmlarning turli turlari uchraydi. Masalan: "ichida mamnun bo'lmoq", "qo'lini yuvib, qo'ltig'iga artmoq", "ko'ngli cho'kmoq", "ko'ngli sovumoq", "fig'oni falakka chiqmoq", "xun bo'lmoq", "yuragi siqilmoq", "ko'zi to'rt bo'lmoq" kabi xalqona iboralar qahramonning ruhiy holatini tabiiy, jonli ochib berilishiga xizmat qilgan. Hatto yozuvchi o'zbek maqollaridan bo'lgan "Ichkuyov – kuchuk kuyov"ni ham asl folklorizm sifatida hikoya kontekstida ishlatgan. Masalan: "– E, jiyan, chakki qilyapsan-da, –dedi. Ichkuyov kuchuk kuyov deydi. Turmushni bilmaysan. O'zingni qafasga solyapsan..."[5]. Yozuvchi "Ichkuyov kuchuk kuyov" asl folklorizmini hikoyada yaratgan ekan, asar qahramoni Akobirning xor bo'lib fojiaiy o'lim topishiga kichik bir ishora beradi. Hikoyaning bosh qahramoni Mastura. Uning otasi o'tgan asrning 30-yillarida magazinchi bo'lib ishlagan. Ochlikdan, magazinda sotuvchilik qilib turgan joyida jon bergan. Shundan beri Mastura kasalmand, bir ko'zi shilpiq onasi bilan yashaydi. Mastura tashqi jihatdan nihoyatda chiroqli qiz. Ammo qalbi buning teskarisi. Uni qo'ni-qo'shnilar unchalik yoqtirishmaydi. Mastura nihoyatda xudbin, e'tibortalab, izzattalab bo'lib o'sadi. Hayot qiyinchiliklarini o'z yelkasida ko'tarishni istamaydi. Uni yetim bola Akobir sevib qoladi. Mastura qishlog'ida e'tibor va hurmatni poytaxtga o'qishga kirib, topa olmaydi. Shuni bahona qilib, o'qishni tashlab, uyiga qaytib keladi. Hatto sevgilisi Akobirni ham o'qishni tashlab kelishga da'vat etadi. Ammo Akobir o'z fikrida qolib, institutni tugatib keladi. Uysiz-joysiz talaba bo'lishiga qaramasdan, Akobir Masturaning yolg'onlariga uchib, unga uylanadi. Hikoya yakunida Akobir Masturaga tandir qurib berish uchun toza tuproq olib kelaman deb, tuproq kovlayotib, tuproqning tagida qolib, qattiq jarohatlanadi. Akobir nihoyatda og'ir holatda vafot etadi.

Hikoyada xudbin, ichki dunyosi chirkin ayol Masturaning ruhiy dunyosi badiiy tahlil etilgan. Zero, hikoya shunday yakun bilan tugallanadi: "Akobirning qirqi o'tgach, Mastura uni astasekin unuta boshladi va uni otasini eslagani singari eslaydigan bo'lib qoldi. Lekin qo'shnilar undan yuz o'girishgan edi. Endi tajribali Mastura fikr qildi: "O'zi odamlarning tayini yo'q. Bir kun qarasang, yaxshi ko'radi, bir kun qarasang, yomon ko'radi. Fu! Yana bitta erga tegay, keyin yana kim yaxshi – Masturaxon yaxshi bo'ladi". Masturaning ichki monologi uning kimligini,

uning dunyoqarashi qandayligini yaqqol namoyon etgan. Shukur Xolmirzayev qahramon ruhiyatini teran ochib berishda badiiy asarda nutq tiplariga (muallif bayoni, ichki monolog, dialog va boshqalar) nihoyatda e'tiborli adiblardandir.

Xulosa va takliflar. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi haqida adabiy portret yaratgan adabiyotshunos H.Karimov "Bahor o'tdi" hikoyasi haqida shunday yozadi: "Yozuvchi o'z g'oyasini qahramon sa'y-harakati, sajiyasi zamiriga singdirgani, uni tajribaviy ravishda, voqealarga aralashmay, lekin o'z pozitsiyasiga izchil qolgan holda realistik tasvirlagani uchun kitobxon shuuriga chuqur singadi va uning ta'sirida uzoq qoladi. Demak, hikoyaning ikkinchi umri kitobxon qalbida kecha boshlaydi. Bunga erishish, so'zsiz, yozuvchining mahoratidan dalolatdir". Haqiqatan ham yozuvchi qahramonlarni tabiiy yoritadi. Adib o'z qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Hikoya nega "Bahor o'tdi" deb nomlangan? Bu ham bir jumboq aslida. Hikoya qahramoni Mastura yoshligi, bahori o'tib ketgan bo'lsa-da, bola kabi bahorini kutib yashaydi. Bizningcha, Bahorning o'tishi ramziy ma'noda

inson umrining o'tib ketishiga ishoradir. Hikoyada qo'llanilgan asl va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar hikoya qahramonlarining ruhiyati, hayoti, fojiasi, qismatini chuqur xalqona ravishda asoslashga xizmat qilgan.

Adibning "Yangi zot" hamda "Qariya" hikoyalarida ham oddiy folklorizmning asl oddiy folklorizm va qayta ishlangan folklorizm turlari talaygina uchraydi. Masalan, hikoya matnida "Olamda yo'q, o'zingda yo'q" maqolining ikkinchi qismi tushirilib qoldirilib, birinchi qism ikkinchi qism sifatida ishlatilib, birinchi qismga yozuvchining o'z so'zi qo'shilib qayta ishlangan oddiy folklorizm paydo bo'lgan. Jumladan: "...Bu mollar og'ilda ham, olamda ham yo'q mahal. Bu yigit sovxoz qoramollarini ko'zdan kechirib yurib, archali tog' ostida haybatli, semirib ketgan bir buqani ko'rib qoladi". Shuningdek, hikoya matnida "Ko'ngli buzilmoq", "ko'ngli bo'sh", "ko'zdan kechirmoq", "boshini liqillatmoq" iboralari ham uchraydi. Bu xalqona obrazli frazeologizmlar qahramon ruhiyatini tabiiy ochib berishga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Холмирзаев Ш.замондошлари хотирасида. F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2010 й
2. Қозоқбой Йўлдошев "Эркин сўз" Ш.Холмирзаев замондошлари хотирасида .F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2010 й
3. Ҳамидова М."Ҳозирги ўзбек адабиётида миллий қаҳрамон муаммоси"(Шукур Холмирзаев ижоди мисолида)ф.ф.н.дисс.Тошкент-2001
4. Имомкаримова М."Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини"ф.ф.н.дисс.Тошкент-2004й
5. Холмирзаев Ш.Наврўз,Наврўз ҳикояси, Сайланма III жилд . Ҳикоялар.Тошкент: Шарқ -2009 .
6. Лайло Шарипова Ўзбек шеърлятида фольклоризм монография "Фан"нашриёти 2011 й
7. Хўжаев Тохир XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор ф.ф.н.дисс.Тошкент 1996 й